

ONTOGENEZ TASNIFI TAHLILI VA TADQIQI

Bahriddinova Gavhar Oydinovna

Navoiy Davlat Universiteti magistri

Annotatsiya: *Nutq asosan insonda 7 yoshgacha bo'lgan davr mobaynida hosil bo'lib, demak dastlabki nutq rivojlanuvchi davr nutq ontogenezi muhim o'rin tutuvchi bosqich hisoblanadi. Bu jarayonda turli nutqiy patologiyalar vujudga kelmasligi uchun chaqaloq yoki bolaning yaqinlari u bilan har doim muloqotga kirishishlari kerak, xatto bu jarayonni bola tug'ilishi bilanoq boshlash lozim. Chunki olimlarning ta'kidlashicha uch yoshgacha bo'lgan bola miyasining ma'lumotni qabul qilish qobiliyati katta odamnikiga nisbatan ustunroq. Faqat biz bolaga "ko'proq berish" yoki qiziqish uyg'otishdan qo'rqqanligimiz lozim. Bola miyasi shimgich kabi bilimni o'ziga "shimib" oladi, agar to'lib ketganini sezsa o'chadi va yangi ma'lumotni qabul qilishni to'xtatadi.*

Kalit so'z: *Ona tiliga asoslangan qarash, Biologik asoslarga tayangan qarash, Xatti-harakatga asoslangan qarash, Ijtimoiy ta'sirlarga asoslangan qarash,*

Ontogenezi–organizmdagi biron narsaning(organ, funktsiya, tuzilish) tug'ilishidan to o'lguniga qadar bo'lgan izchil rivojlanishi. Psixolingvistikada ontogenezi termini inson lisoniy qobiliyatlarining shakllanishini anglatadi. Nutq ontogenezi nutqiy faoliyat nazariyasining tarkibiy qismi bo'lib, u individda nutq mahsulining shakllanishi, nutqiy qobiliyat ko'nikmasining paydo bo'lishini o'rganadi. Nutq ontogenezi bola nutqining tug'ilishidan to 7 (9,11) yoshgacha bo'lgan davrida har tomonlama izchil rivojlanishida namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda tilni o'zlashtirish (nutq ontogenezi) nazariyasi keng qamrovli soha hisoblanib, o'ziga xos mustaqil maqomga ega.

Kishilar tilni ular ma'lum til bilimlari bilan ta'minlanib tug'ilganliklari uchun o'zlashtirishadimi? Yoki ular turli muammolarni hal qila oladigan o'ta aqlli mahluk bo'lganliklari uchun tilni o'rgana olishga qodirmilar? kabi savollarni javoblantirish uchun olimlar tomonidan turlicha qarashlar ilgari surilgan.

1. Xatti-harakatga asoslangan qarash. Ushbu qarashga ko'ra, bolalar tilni boshqa narsalarni o'rgangandek o'rganishadi. Atrofdagi bir qancha tovushlarni guruhlantirish (<https://azkurs.org/biofizika-fanidan-tayyorlagan-mustaqil-ishi-tekshirdi-reja.html>), shakllantirish va shunga o'xshash holatlarda mazkur tovush va ta'sirlarni yuzaga chiqarish amalga oshiriladi. Bola onasi va atrofidagi yaqin kishilarining ko'rsatgan ta'sirlarini vaqti vaqti bilan tilga chiqaradi. Shuningdek, go'daklarning ko'p eshitgan tovushlarga taqlid qilishlari ham nutqning shakllanishida muhim o'rin egallaydi.

2. Ijtimoiy ta'sirlarga asoslangan qarash. Bu qarash ham yuqoridagi qarashning davomi bo'lib, unda til o'zlashtirish to'g'ridan-to'g'ri taqlid qilish va qoliqlar olish asosida talqin qilinib, ijtimoiy va madaniy muhitga urg'u beriladi. Chaqaloq tug'ilishi bilan ma'lum bir madaniy muhitga tushadi. Shunday ekan ijtimoiy (madaniy) me'yorlar, eng avvalo, mana shu madaniy belgilar orqali go'dakka o'zlashadi. U rivojlanish

jarayonidagina jamoa (sotsium)ning a'zosiga aylanadi. Mazkur jarayon esa kamida ikki munosabatlar tizimi – go'dakning odamlar bilan muloqotga kirishishi hamda uni o'rab turgan moddiy narsa-buyumlarni o'rgana borishi orqali shakllanadi. Bu munosabatlar tizimini egallash bir vaqtning o'zida bir-biridan ajralmagan holda amalga oshadi.

3. Ona tiliga asoslangan qarash (<https://azkurs.org/ona-tili-9-sinf.html>). Mazkur qarash til o'zlashtirishni genetik jihatiga e'tibor qaratadi. Barcha insonlar oldindan tilni o'zlashtirish vositalariga ega bo'ladi. Odam paydo bo'lgan vaqtdan boshlab til ham paydo bo'lgan. U avloddan-avlodga o'tib, takomillashib bordi. Natijada insonning gapirish qobiliyati uning ruhiga shunchalik chuqur joylashdiki, u nasldan-naslga o'tish xususiyatiga ega bo'ldi. Har bir yangi tug'ilgan go'dak tilni yangidan o'rganmasdan, balki organizm balog'atga yetishi bilan uning lisoniy qobiliyati ham organizm bilan birga rivojlanadi. Demak, inson zoti gapirishni uni o'rab turgan jamiyat a'zolari tomonidan o'rganmay, ular yordamida bosh miyasiga joylashgan mavjud tizimni tiklaydi, aks holda bu qarashga ko'ra, bolalar tildek murakkab bir hodisani bunchalik tez va mukammal o'rganib olishlari mumkin bo'lmasdi.

4. Biologik asoslarga tayangan qarash. Noam Xomskiy va Erik Lennerberg kabi tilshunoslar tilni o'zlashtirishdagi atrof-muhitdagi sharoitlar ahamiyatini e'tirof etganlari holda uni biologik asoslarga bog'lashgan. Olimlarning fikricha (<https://azkurs.org/1-bizda-birinchi-savol-gafur-gulom-ijodidan-vaqt-sheridan-parc.html>), barcha bolalarda tilni o'rganish jarayonini boshqaradigan tug'ma qobiliyat mavjud. N.Xomskiyning qarashicha, insonda tilni o'rganish uchun "tug'ma" (innate, inborn) maxsus mexanizm mavjud bo'lib, u bolani atrofida gaplashilgan tilni singdirishiga (<https://azkurs.org/tilni-egallash-konsepsiyalari-reja-tugma-bilimlar-nazariyasi-n.html>), tushunib o'rganishiga, vanihoyat, uning muayyan qoidalarga mos ravishda gapirishini ta'minlaydi. N.Xomskiyning taxminicha, bolada tug'ma til strukturalari mavjud. Shunga ko'ra, olim "tug'ma bilimlar" nazariyasini ilgari suradi.

N.Xomskiy til tizimidagi har bir ifodani botiniy va zohiriy strukturaga ajratadi. Botiniy strukturani tushunchalarning ma'no tomoni, zohiriy strukturani esa muomaladagi so'zlar bilan aloqador qiladi. Bolalar tilni o'rganishda dastlab tovushlarning ma'nolarini tushunib oladilar, keyin esa ularni botiniy strukturaga aylantiradilar.

L.S.Vigotskiyning fikricha, til tafakkur bilan birga parallel holda rivojlanadi. U til o'rganishning kishining ongli fikrlash qobiliyatiga ta'sir ko'rsatishini qayd qiladi. L.S.Vigotskiyga ko'ra, so'z predmetning strukturasiga yo'nalib, funksional ma'no kasb etadi. Shu bilan birga, olim bola mavjud bo'lgan til muhitining fikrlash tizimiga ta'sir qilishini ham alohida ta'kidlaydi. Insonning psixik rivojlanishi uning umuminsoniy madaniy tajribani o'zlashtirishi (bu asosan moddiy dunyoni, aniqrog'i, narsa-buyumlarni o'rgana borishi) bilan bog'liq holda ro'y beradi. Biologik va ijtimoiy o'zaro munosabat haqidagi masalani fransuz psixologi Jan Piaje asosli ravishda javoblantiradi. Jan Piaje asosiy e'tiborini bola tafakkurining xususiyatlari, borliqdagi hodisalarni go'dak ongida qay tarzda namoyon bo'lishi va h.k.ga qaratadi. J.Piaje bolada tafakkur va tilning rivojlanishi uzluksiz ravishda emas (<https://azkurs.org/9-uzluksiz-tasodifiy-miqdorlar>

ehtimollar-taqsimotining-zichli.html), balki bosqichma-bosqich amalga oshishini qayd qiladi. J.Piaje bolaning rivojlanishida ikki bosqichni qayd qiladi va intellektni birinchi planga chiqaradi. Tilning rivojlanishi umumiy intellekt o'zgarishlarini boshqaradi va intellektual rivojlanish tildan ta'sirlanadi. Birinchi sensomotor mantiq bosqichida bolada harakatlar mantig'ini tushunishga yordam beradigan sensomotor intellekt rivojlanadi. Ikkinchi bosqichda harakatlar mantig'idan konseptual mantiqqa (<https://azkurs.org/mantiq-asoslari.html>) o'tiladi. U bola hayotining ikkinchi yilida yuz beradi. Mazkur bosqichda bola tilni semiotik vosita sifatida o'zlashtiradi. U kattalarning imo-ishoralarini takrorlaydi va unda ramzlar funksiya rivojlanadi. Bolaning dastlabki so'zlari haqiqiy ramzlar emas. Chunki bu ramzlar ko'rilgan narsalar va hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Bolalar atroflarida mavjud bo'lmagan narsalar haqida gapirishga boshlaganda haqiqiy, asosiy ramzlarni qo'llay boshlaydilar.

J.Piajening fikricha, bola ongi dastavval toza (<https://azkurs.org/mavzu-leksikologiya-haqida-malumat.html>), sof bo'ladi. U jamiyatga kirib borishi bilan bolaning ongida ham ijtimoiylashuv yuz bera boradi. Bolaning intellekti uni o'rab turgan muhit bilan munosabatiga ko'ra shakllanib boradi. Munosabat qaysi til orqali amalga oshirilsa, bola tafakkuri shu tilda o'sadi, biroq til o'z holicha bu o'sishni belgilab berolmaydi.

L.S.Vigotskiy va J.Piaje fikrlarini birlashtirib qaraydigan bo'lsak, til rivojlanishini tashqi olamdagi narsalarning mental ramzlashishi bilan amalga oshishi ma'lum bo'ladi. Til bir tomondan fikrlash uchun xom ashyo tayyorlarkan, ikkinchi tomondan fikrlay olish qobiliyatiga parallel ravishda faoliyat ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda (<https://azkurs.org/1-gomeopatiya-linimentlari-haqida.html>), til bolaning mavhum fikrlash qobiliyatiga tashqi olamdan ramzlashtirilgan ma'nolarni biriktirishiga yordam beradi. Ya'ni til va tafakkur bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ular o'zaro aloqadadir. Shuning uchun bola tilni yetarli darajada tushunadi va uning tushunchaviy fikrlash qobiliyati ortgan sari tili ham rivojlanadi.

1. Xatti-harakatga asoslangan qarash. Ushbu qarashga ko'ra, bolalar atrof-muhitidagi narsa va hodisalarni qanday o'zlashtirsalar tilni ham huddi shunday o'zlashtiradilar. Bola onasi va yaqinlarining unga ko'rsatgan tovush ta'sirlarini vaqti-vaqti bilan tilga chiqaradi. Shuningdek, go'daklarning ko'p eshitgan tovushlarga taqlid qilishlari ham nutqning rivojlanishida muhim o'rin egallaydi.

2. Ijtimoiy ta'sirlarga asoslangan qarash. Bu qarash ham yuqoridagi qarashning uzviy davomi bo'lib, unda til o'zlashtirish to'g'ridan-to'g'ri taqlid qilish va qoliplar asosida talqin qilinib, ijtimoiy-madaniy muhitga urg'u beriladi. Chaqaloq tug'ilishi bilan ma'lum bir ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit bolaning tilni o'zlashtirishida va nutqining rivojlanishida o'ta muhim jarayon hisoblanadi. Masalan bola rus millatiga mansub ota-ona farzandi deylik, taqdir taqozosi bilan u Angilyada ingiliz oilasida voyaga yetdi. Bu jarayonda bolaning millati rus millatiga mansub bo'lsada, u o'sib rivojlangan muhit tufayli u tabiiy holda ingiliz tili va madaniyatini o'zlashtiradi. Ingiliz tilida til ochadi. Yoki boburiylar sulolasi vakili Akbarshoh o'tkazgan tajribaga ko'ra u chaqaloqlardan bir nechtasini gapiradigan enagaga, bittasini gapira olmaydigan, zabonsiz enagaga

topshirishni buyuradi. Oradan yillar o'tib, gapira oladigan enagalarning chaqaloqlari nutqi yaxshi rivojlangan, muloqotga kirisha oladigan bo'lib voyaga yetadi. Soqov enaga tarbiyalagan enaganing chaqalog'i tanasida hech qanday nuqsoni bo'lmasada nutqi rivojlanmasdan, soqov bo'lib voyaga yetadi. Mana shu misollarning o'zi chaqaloq voyaga yetayotgan, o'sib rivojlanayotgan ijtimoiy muhit uning tili, nutqiy ontogenezi shakllanishida nechog'lik muhim ahamiyat kasb etishiga yaqqol dalil bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

1. Ona tiliga asoslangan qarash. Mazkur qarashda til o'zlashtirishning genetik jihatiga e'tibor qaratiladi. Har bir shaxs oldindan tilni o'zlashtirish vositalariga ega bo'ladi. Yer yuzida odam paydo bo'lgan davrdan boshlab til ham vujudga kelgan. U avloddan-avlodga o'tgani sayin takomillashib, rivojlanib borgan. Natijada insonning gapirish qobiliyati uning ruhiga shunchalik chuqur joylashdiki, u nasldan-naslga o'tish xususiyatiga ega bo'ladi. Har bir yangi tug'ilgan chaqaloq tilni yangidan o'rganmasdan, balki organizm balog'atga yetishi bilan uning lisoniy qobiliyati ham organizm bilan birga takomillashadi. Demak bu nazaryaga ko'ra har bir shaxs gapirishni uni qurshab turgan jamiyatdagi a'zolar tomonidan o'rganmay, ular yordamida bosh miyasiga joylashgan mavjud tizimni, tiklaydi, aks holda bolalar tildek murakkab bir hodisani bunchalik tez va mukammal o'zlashtirishlari mumkin bo'lmasdi.

2. Biologik asoslarga tayangan qarash. Noam Xomskiy va Erik Lennerberg kabi tilshunoslar tilni o'rganishda atrof-muhit ta'sirini e'tirof etgani holda, uni biologik asoslarga bog'lashgan. Olimlarning fikriga ko'ra barcha bolalarda til o'rganish jarayonini boshqaruvchi tug'ma "iqtidor" mavjud. N.Xomskiyning fikriga ko'ra ham huddi shunday, ya'ni har bir insonda tilni o'rganish uchun tug'ma maxsus mavjud bo'lib, u bolani atrofida gaplashilgan tilni singdirishiga, tushunib o'rganishiga, va nihoyat, uning muayyan qoidalarga mos ravishda gapirishini ta'minlaydi. N.Xomskiyning ta'kidlashicha bolalarda tug'ma til strukturasi mavjud. N.Xomskiy til tizimidagi har bir ifodani ichki va tashqi strukturaga ajratadi. Ichki strukturani tushunchalarning ma'no tomoni bilan, tashqi strukturani esa muomaladagi so'zlar bilan bog'laydi. Bolalar tilni o'rganishda dastlab tovushlarning ma'nolarini tushunib oladilar, keyin ularni ichki strukturaga joylaydilar. Shuningdek nutq rivojlanishi inson hayotida muhim o'rin egallovchi murakkab jarayonlardan hisoblanadi va afsuski, juda keng tarqalgan muammolardan biridir. Nutqni yaxshi shakllantirish uchun bola bilan muloqot qilish lozim. Afsuski, na televizor, na audio ertaklar odamning odatiy nutqini o'rnini bosa olmaydi. Chaqaloq dunyoga kelganining 5-6-oyidan boshlab turli xil qush va jonivorlarga, eshitgan tovushlariga taqlid qilishni boshlashi kerak. 6-8 oydan boshlab esa onasi yoki yaqinlari u bilan huddi katta odam bilan muloqotga kirishgandek, qilmoqchi bo'layotgan ishini aytishi, gaplashishi, she'r va ertaklarni o'qib berishi, kitoblardagi rasmlarni ko'rsatib nomini aytib borishi kerak. To'g'ri sizda u hali kichkina hech natrsani tushunhmaydiku, degan o'rinli savol paydo bo'lishi mumkin. Ammo bu harakatlaringiz bola miyasining rivojlanishiga va ko'proq yangi asabiy aloqalarning paydo bo'lishiga yordam beradi. Agar bola nutq standartlariga javob bermasa, tashvishlanishga hojat yo'q. Chunki nutq shakllanish

jarayoni har bir bolada individual, ya'ni o'ziga xos kechuvchi jarayon hisoblanadi. Bir yoshga qadar bolalar kelajakda nutqni o'zlashtirish uchun bir necha bosqichlardan o'tadi. 4-5 oyligidan ovoz chiqarishi, 8 oyligidan turli xil harflarni juftlab ayta olishi mumkin. Birinchi so'zlar aksariyat chaqaloqlarda 9 oydan 1,5 yoshgacha bo'lgan davrda shakllanadi. Bu so'zlar tanish so'zlar yoki nutqdan uzoq so'zlar bo'lishi ham mumkin. Bola ba'zi narsa va hodisalarga o'zi talaffuz qila oladigan tovushlarni yig'ib nom qo'yadi. Masalan, mashinaga – didid, nonga – nanna, suvga – umma, itga – bo'bi kabi o'ziga qulay, talaffuz qila oladigan nomlarni qo'yadi. Qoidaga ko'ra, birinchi so'zlar paydo bo'lganidan keyin 6-12 oy o'tgach, leksik jarayon sodir bo'ladi, so'zlar soni keskin ko'payadi, birinchi iboralar paydo bo'ladi, ya'ni yaxlit ma'no bilan birlashgan ikki yoki undan ortiq so'z. Nutqiy patologiyasi mavjud bolalar esa 1,5-2 yoshida ota-ona tomonidan nomlangan narsa va hodisalarni (non, olma, suv, ovqat... v.k) ko'rsatolmaydi, so'zni aytmaydi. 2,5-3 yoshida oddiy iboralarni tuza olmaydi (suv ichaman, ko'chaga chiqaman, och bo'ldim...v.k). Agar bolada yuqoridagi kabi nutqiy patologiya kuzatilsa mutaxassislar bilan bog'lanish va uni pediatr, nevrolog, defektolog, neyropsixolog ko'rigidan o'tkazish lozim bo'ladi. Yaponiyalik Masaru Ibukaning "Uchdan keyin kech" nomli kitobida qiziq bir faktni keltiradi. Unga ko'ra ikki yashar nabirasi bir kuni uyiga mehmonga kelgan holatni eslaydi. Nabirasi uyga yangi ilingan neon lampasiga qarata "Bu Xitachi", "Bu Toshiba"- deydi. Shunda Masaru ikki yoshli nabiram xitoy iyerogliflarini o'qiy oladi deb xursand bo'ladi va onasidan qachon xitoy iyerogliflarini o'rgatganini so'raydi.

Aniq bo'ladiki, u xitoycha "Xitachi" va "Toshiba"ni o'qigan emas, balki savdo belgilarini shakllar sifatida eslab qolib ajrata olgan. Yosh bolaga shaklga qarab narsalarni tanish qobilyati berilgan va bu tahlil qilish bilan bog'liq emas, buni bola kechroq o'rganadi. Bolaga mavhum so'zlardan ko'ra, masalan, "to'qqiz" kabi, bola uchun qanchalik qiyin bo'lmasin, "jirafa", "tulki" kabi aniq bir narsani bildiruvchi so'zlarni yodlash osonroq. Bolalarda ajoyib "ramziy" xotira mavjud bo'ladi. (Ibuka, 2019, 29-30-bet) Yuqoridagi fikrlarimizga xulosa yasaydigan bo'lsak, nutqiy ontogenez jarayoni ya'ni insonning tug'ilganidan to umrining ohiriga qadar rivojlanib, shakllanib boruvchi murakkab bir jarayon ekanligi anglashiladi.

Nutq asosan insonda 7 yoshgacha bo'lgan davr mobaynida hosil bo'lib, demak dastlabki nutq rivojlanuvchi davr nutq ontogenezida muhim o'rin tutuvchi bosqich hisoblanadi. Bu jarayonda turli nutqiy patologiyalar vujudga kelmasligi uchun chaqaloq yoki bolaning yaqinlari u bilan har doym muloqotga kirishishlari kerak, xatto bu jarayonni bola tug'ilishi bilanoq boshlash lozim. Chunki olimlarning ta'kidlashicha uch yoshgacha bo'lgan bola miyasining ma'lumotni qabul qilish qobilyati katta odamnikiga nisbatan ustunroq. Faqat biz bolaga "ko'proq berish" yoki qiziqish uyg'otishdan qo'rqqanligimiz lozim. Bola miyasi shimgich kabi bilimni o'ziga "shimib" oladi, agar to'lib ketganini sezsa o'chadi va yangi ma'lumotni qabul qilishni to'xtatadi.

Biz xavotir olishimiz kerak bo'lgan narsa bolaga ma'lumot ko'p berayotganimiz emas, balki bola nutqining to'laqonli shakllanishi uchun kam ma'lumot taqdim etayotganimiz bo'lishi lozim aslida.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Normativ, huquqiy –me'yoriy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik bo'lgan nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – O'zbekiston, 2023. B – 76.

2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida” Qonuni // “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori”. – T.; Sharq, 1997. B– 20-29.

Darslik, o'quv qullanma, monografiya, dissertatsiyalar, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

3. Abduqodirov A. A., Pardayev A. X. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug'ati. – T.: Fan va texnologiya, 2012. B – 44.

4. Akbarova Z.A. O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi. Filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2007. – B. 9-10.

5. Abdurahmonova M., Fattaxova D., Xalmuxammedova U., Inogamova N., Egamberdiyeva N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Mumtoz so'z, 2018.

Elektron resurslar

6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi: www.uzedu.uz.

7. https://www.sovremennye_obrazovatelnye_tehnologi.ru/publ/metodicheskie_materialy/. [http:// moi-rang.ru](http://moi-rang.ru)